



XOTIN-QIZLAR MUAMMOLARINI HAL ETISHDA MAHALLANING ROLI VA TARTIB-TAOMILLARI

Abdiraimova Shaxnoza Abdugappar qizi

Oila va gender ilmiy-tadqiqot instituti kichik ilmiy xodimi

Annotatsiya. Maqolada xotin-qizlarning ijtimoiy muammolarini aniqlash va bartaraf etishda mahalla faoliyatining o‘rni va tartib-taomillari tahlil qilingan. “Mahalla yettiligi” instituti orqali muammoli xotin-qizlarni aniqlash, ularga manzilli yordam ko‘rsatish va tegishli idoralar bilan hamkorlikda muammolarni hal etish mexanizmlari yoritilgan. Xotin-qizlar faollari mahallada ijtimoiy himoyaga muhtoj ayollarni o‘z vaqtida aniqlash, ularga ko‘maklashish va nazoratni amalga oshirish vazifalarini bajaradi. Maqolada amaliyotda uchrayotgan muammolar va ularni bartaraf etish bo‘yicha takliflar ham berilgan.

Kalit so‘zlar. Mahalla, xotin-qizlar muammolari, ijtimoiy yordam, mahalla yettiligi, faol xotin-qizlar, ijtimoiy himoya, muammolarni hal qilish.

Аннотация. В статье проанализирована роль и порядок деятельности махалли в выявлении и решении социальных проблем женщин. Рассмотрены механизмы выявления проблемных женщин, оказания им целевой помощи через институт «Махалла еттилиги» и взаимодействия с соответствующими организациями. Активисты по работе с женщинами выполняют задачи своевременного выявления нуждающихся в социальной защите женщин, оказания им помощи и контроля за решением проблем. В статье также приведены практические проблемы и рекомендации по их устранению.

Ключевые слова. Махалля, проблемы женщин, социальная помощь, Махалля семерка, активные женщины, социальная защита, решение проблем.

Annotation. The article analyzes the role and procedures of the mahalla in identifying and addressing social issues faced by women. It highlights the mechanisms for identifying women in need, providing targeted support through the “Mahalla Yettligi” institution, and collaborating with relevant agencies to solve problems. Women’s activists in the community are responsible for timely identification, assistance, and monitoring of socially vulnerable women. The article also discusses practical challenges and offers recommendations for their resolution.

Keywords. Mahalla, women's issues, social assistance, Mahalla seven, active women, social protection, problem solving.

Kirish

Har qanday jamiyatning barqaror taraqqiyoti, uning ma’naviy yuksalishi, avvalo, ayollar—ona va tarbiyachi sifatida hayotda tutgan o‘rni va mavqei bilan chambarchas



bog'liqdir. Ayniqsa, bugungi kunda davlatimiz tomonidan xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning huquq va manfaatlarini ta'minlash, ijtimoiy himoyaga muhtoj ayollarga amaliy yordam ko'rsatish masalalari davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan.

Shu maqsadda, mahallalarda xotin-qizlar bilan ishlash tizimi tubdan qayta ko'rib chiqilib, "mahalla yettiligi" kabi yangi, uzviy hamkorlikka asoslangan institutlar joriy etildi. Ushbu tizimning samarali faoliyati, birinchi navbatda, muammoli xotin-qizlarni o'z vaqtida aniqlash va ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, tegishli tashkilotlar bilan hamkorlikda muammolarni manzilli hal etishga bog'liqdir.

Afsuski, ba'zi hollarda muammo yetarlicha chuqur o'rganilmasligi, ayolning ahvoriga befarq qaralishi og'ir ijtimoiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Shu bois xotin-qizlar faollari va "mahalla yettiligi" a'zolari nafaqat ijtimoiy daftarlarga kiritilgan, balki tashabbus ko'rsatib murojaat qilmagan, lekin yordamga muhtoj ayollarni ham o'z vaqtida aniqlashi va ular bilan manzilli ish olib borishi talab etiladi.

Metodologiya. Tahlil jarayonida tizimli tahlil usuli orqali "mahalla yettiligi" faoliyati va unga a'zo bo'lgan shaxslarning vazifalari o'zaro bog'liqlikda ko'rib chiqildi, solishtirma tahlil usuli bilan xotin-qizlar holatini aniqlash, yordam ko'rsatish va nazorat qilishdagi mavjud mexanizmlar kamchilik va imkoniyatlar nuqtai nazaridan taqqoslab o'rganildi;

Amaliyotga asoslangan tahlil asosida mahallalarda faoliyat yuritayotgan xotin-qizlar faollari, hokim yordamchilari, profilaktika inspektorlari, ijtimoiy xodimlar va boshqa mutasaddi shaxslar bilan olib borilgan suhbat va kuzatuvlardan foydalanildi, huquqiy tahlil orqali joriy etilayotgan chora-tadbirlar va yordam turlarining qonuniy asoslari o'rganildi, tavsiyaviy metod orqali aniqlangan muammolarni bartaraf etish bo'yicha amaliy yechimlar va takliflar shakllantirildi.

Asosiy qism. Xotin-qizlarning muammolarini aniqlash tartibi. Bugungi kunda jamiyat taraqqiyoti va barqarorligini ta'minlashda xotin-qizlarning o'rni beqiyos. Ayniqsa, ularning muammolarini o'z vaqtida aniqlash va yechim topishga ko'maklashish — har bir mas'ul shaxsning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Shu maqsadda mahallalarda xotin-qizlar bilan ishlashning yangi tizimi, jumladan "mahalla yettiligi" faoliyati yo'lga qo'yildi. Ushbu tizim orqali muammoli holatdagi xotin-qizlar aniqlanib, manzilli yordam ko'rsatilishi nazarda tutish masalaning dolzarbligini belgilaydi.

Xotin-qizlarning muammolari, ehtiyojlari va qiziqishlari quyidagi shakllarda o'rganiladi:

- "mahalla yettiligi" tomonidan anketa-so'rovnoma asosida barcha yo'nalishdagi muammolarni har yili yanvar oyida uyma-uy yurish orqali;
 - xotin-qizlarning "mahalla yettiligi"ga murojaatlari orqali;
 - "xotin-qizlar.uz" elektron platformasi va "Ayollar daftari" axborot tizimi orqali.
- Belgilangan tartibga muvofiq, anketa-so'rovnoma to'ldirilgandan so'ng:
- "mahalla yettiligi" tomonidan xotin-qizlarning ijtimoiy himoyaga muhtojlik darajasi (toifasi) aniqlanadi;

• “Ayollar daftari”ga kiritiladigan xotin-qizlarning ro‘yxatlari shakllantiriladi yoki asoslantirilgan holda “Ayollar daftari”ga kiritish rad etiladi.

Muammolarni aniqlash jarayonida xotin-qizlarning ehtiyojlari va muammolariga, ularning vaziyatiga har tomonlama yondashish talab etiladi.

Shu bilan birga, “Yoshlar daftari”ga kiritilgan xotin-qizlar bilan shug‘ullanish xotin-qizlar faolining vazifasiga kirmaydi, degan fikr noto‘g‘ri fikr hisoblanadi.

Xotin-qizlar faoli mahalladagi barcha xotin-qizlar bilan ish olib boradi. Xotin-qizlarning muammolari bo‘la turib, belgilangan talablarga mos kelmagani uchun ijtimoiy daftarlarga yoki uning oilasi Kambag‘al oilalar reestriga kiritilmagan bo‘lsa, ularning o‘z muammolari bilan o‘zlari qolib ketishiga yo‘l qo‘yish aslo mumkin emas.

Shuningdek, xotin-qizlarning deyarli barchasi (jumladan, 30 yoshga to‘lmagan muammoli xotin-qizlar ham)ni nazoratdan chetda qoldirmaslik kerak, chunki muammoning kichigi yoki kattasi bo‘lmaydi, xuddi shuningdek, muammo yosh tanlamaydi, ayrim xotin-qizlarning muammolari bir emas, balki bir qancha bo‘lishi tabiiy holdir.

1-jadval

Muammoli xotin-qizlar bilan manzilli va tizimli ish olib borish yo‘nalishlari

Vaziralar	Tavsifi va amaliy yo‘nalishlar
Muammolarni o‘z vaqtida aniqlash	Xotin-qizlar faollari mahalladagi har bir xotin-qizning ijtimoiy, iqtisodiy va boshqa sohalaridagi muammolarini aniqlash uchun doimiy uyma-uy yurib, anketa-so‘rovnomalarni to‘ldirishadi. Bu bosqichda, muammolarni kechiktirmasdan aniqlash muhim hisoblanadi.
Muammoni hal etishga ko‘maklashish	Aniqlangan muammolar bo‘yicha tegishli tashkilotlar va mutaxassislar bilan hamkorlikda muammoni hal qilish yo‘llarini izlash va amalga oshirishga yordam berish. Masalan, ijtimoiy yordamga muhtoj ayollarga moddiy yordam, maslahatlar yoki treninglar tashkil qilish.
Mas‘ullarga yo‘naltirish	Muammoni hal etish uchun mas‘ul tashkilotlarga, davlat yoki nodavlat tashkilotlarga aniq va tezkor ravishda murojaat qilish. Bu, o‘z navbatida, muammoni samarali va o‘z vaqtida hal etilishini ta‘minlaydi.
Hal etilishi ustidan nazorat o‘rnatish	Muammoning hal etilish jarayonini kuzatib borish, mas‘ullar tomonidan qanday choralar ko‘rilganini tekshirish va kerak bo‘lsa, muammoni yanada tez va to‘liq hal qilish uchun qo‘shimcha choralar ko‘rish.

Shuning uchun xotin-qizlar faollari ijtimoiy daftarlarga yoki Kambag‘al oilalar reestriga kiritilmagan, lekin muayyan muammolari mavjud xotin-qizlar bilan ham manzilli va tizimli ish olib borishlari talab etadi.

Bunda xotin-qizlar faollari:



- xotin-qizlarning muammolarni o'z vaqtida aniqlashi;
- muammoni hal etishga ko'maklashishi;
- tegishli yordam berish uchun mas'ullarga yo'naltirishi;
- muammoning hal etilishi (bajarilishi) ustidan nazorat o'rnatishi zarur.

Xotin-qizlar faollarining ushbu vazifalarni samarali bajarishi mahallalarda xotin-qizlarning muammolarini o'z vaqtida aniqlash va hal etishni ta'minlaydi, jamiyatda barqaror taraqqiyotga xizmat qiladi.

Muammolar o'z vaqtida bartaraf etilmasa kichik, oddiy bo'lib ko'ringan muammo ham juda og'ir (salbiy) ijtimoiy oqibatlarini keltirib chiqarishi mumkin.

Muammoni o'z vaqtida aniqlash, hal qilishga ko'maklashish, o'z vaqtida qo'llab-quvvatlash choralarini ko'rish orqali turli darajadagi ko'plab ijtimoiy muammolar va salbiy oqibatlarining oldi olinadi.

Shuningdek, qanchadan qancha xotin-qizlarning muammolarini hal etishga ko'maklashish, to'g'ri yo'l-yo'riq, maslahat berish orqali ularning hayotda o'z o'rnini topishiga, dunyoqarashining ijobiy tomonga o'zgarishiga hissa qo'shiladi.

Shunday muammolar borki, bunday muammolarga zudlik bilan e'tibor qaratish, darhol aralashish, ya'ni zudlik bilan chora-tadbir belgilash va amalga oshirishni talab qiladi.

Bundan tashqari yechimi uzoq vaqt talab qiladigan, nomuayyan muddatda bartaraf etish mumkin bo'lgan muammolar bo'lishi ham tabiiy. Misol uchun, turar joy sharoitlari talab darajasida emasligi, moddiy qiyinchiliklar, oilada shaxslararo munosabatlar bilan bog'liq muammolar, oilaviy nizolar, notinch vaziyat, ajralishdan avvalgi yoki keyingi holatlar, zo'ravonlik holatlari, aliment masalalari, xotin-qizlarning ruhiy-psixologik holati yoki sog'lig'i bilan bog'liq muammolar, ruhiyatdagi buzilishlar, axloqidagi muammolar, farzand tarbiyasi bilan bog'liq masalalar, ota-onalik ko'nikmalari yetishmasligi va hk..

Shuningdek, muayyan bir insonda bir yoki bir qancha (ko'plab) muammolar mavjudligi aniqlanganda nima qilish kerak, qanday yo'l tutish kerak? Bunday holatda ular bilan uzoq muddat davomida ish olib borish, har tomonlama qo'llab-quvvatlash choralarini ko'rish, muammolari to'g'ri hal bo'lgunga qadar doimiy nazoratda bo'lishini ta'minlash lozim bo'ladi.

Xotin-qizlar faoli unga murojaat qilgan xotin-qizlardan tashqari muntazam ravishda telefon orqali muloqot, elektron manziliga kelib tushgan yoki ijtimoiy tarmoqlarga joylashtirilgan xabarlar orqali, shuningdek shaxs (oila)ning yashash joyiga borgan holda yoxud shaxsiy uchrashuv, suhbat (telefon orqali, yuzma-yuz) va boshqa yo'llar (fuqaroning yaqinlari yoki tanish bilishlari, qo'ni-qo'shnilar orqali yetkazilgan xabarlar) orqali ijtimoiy xizmatlarga muhtoj, muammoli xotin-qizlarni aniqlashi zarur.

Chunki shunday ayollar borki, o'zining shaxsiy muammolarini yoki oilasining sirini boshqalar bilishini xohlamaydi, yoki kimga murojaat qilishni bilmaydi.

Bu kabi holatlarda qo'ni-qo'shnilar, "Oqila ayollar harakati", "Ayollar maslahat kengashi" va boshqa jamoatchilik tuzilmalari a'zolarining ko'magi ham muhim hisoblanadi.



Xotin-qizlar bilan doimiy muloqot, suhbat (yoki so'rovnom) o'tkazish orqali ularning sharoitlarini o'rganishi hamda qiyin vaziyatga tushib qolish sabablarini tahlil qilishi, shundan keyin muammolarni hal etishga mas'ul "mahalla yettiligi" a'zolari, davlat idoralari bilan hamkorlikda muammolarni hal qilishga ko'maklashish kerak.

Xotin-qizlarning muammolarini hal etish, ularga ijtimoiy xizmatlarni ko'rsatish tartibi tizimli olib borilishi zarur. Xotin-qizlarning muammolarini hal etish, ularga ijtimoiy xizmatlarni ko'rsatish aniqlangan muammolarning yo'nalishidan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

Bunda dastlab, xotin-qizlar faoli muammoli xotin-qizlarga muammo (ijtimoiy, iqtisodiy yoki ma'naviy)ning yo'nalishidan kelib chiqqan holda ko'rsatilishi mumkin bo'lgan xizmatlar, ya'ni ko'mak choralari, shuningdek, amaldagi imtiyozlar, muammolarni qonun doirasida yechimi yo'llari yuzasidan maslahat va tushuncha berishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xotin-qizlar muammolarini o'rganish va hal etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2022-yil 31-martdagi 145-son qarori²⁵da belgilangan tartibga muvofiq, ehtiyojmand xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, natijadorlikka erishish maqsadida individual dastur ishlab chiqiladi va uning bajarilishi monitoring qilib boriladi.

"Ayollar daftari", "Yoshlar daftari"ga kiritilmagan xotin-qizlarning muammolarini aniqlash natijalariga ko'ra, xotin-qizlar faoli ularning muammolarini bartaraf etish, unga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatilishida ko'maklashish uchun quyidagi choralarni ko'radi:

aniqlangan muammolarini tahlil qiladi;

muammolarni keltirib chiqaruvchi, ya'ni og'ir ijtimoiy sharoitga tushib qolishning sabab va omillari ham tahlil qiladi;

belgilangan tartibda ko'mak choralari (ijtimoiy xizmatlar) ko'rsatishni tashkil qiladi.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, xotin-qizlar faoli mahalladagi barcha xotin-qizlar bilan ish olib boradi.

"Ayollar daftari", "Yoshlar daftari"ga kiritilmagan xotin-qizlarning muammolari aniqlash natijalariga ko'ra muammolari aniqlangandan keyin "mahalla yettiligi" a'zolariga yoki muammoni hal qilishga mas'ul bo'lgan idoralarga yo'naltiradi.

Zaruratga ko'ra, muammolarni hal etish uchun mas'ul bo'lgan, vakolatli (ijtimoiy xizmat ko'rsatuvchi) tashkilotlarga rasmiy xat orqali yo'naltirishi yoki Oila va xotin-qizlar bo'limi boshlig'iga masalani yetkazishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, xotin-qizlarning muammolarini "mahalla yettiligi" yoki muammoni hal etishga mas'ul bo'lgan davlat organlariga to'g'ri yo'naltirish muhimdir.

Buning uchun xotin-qizlar faoli nafaqat "mahalla yettiligi" a'zolarining, balki muammoni hal etishga mas'ul bo'lgan davlat organlarining, shuningdek, mahalladagi jamoatchilik tuzilmalari (Oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash komissiyasi, "Ayollar maslahat kengashi", "Oqila ayollar harakati" va h.k.)ning vakolatlari, ularning o'z

²⁵ Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг "Хотин-қизлар муаммоларини ўрганиш ва ҳал этиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида" 2022-йил 31-мартдаги 145-сон қарори

vazifalarini amalga oshirish mexanizmlari hamda o'zining mazkur jarayondagi ishtiroki, o'rni va vazifalarini yaxshi bilishi zarur.

Xotin-qizlar faoli quyidagi yo'nalishlar bo'yicha xotin-qizlarning muammolari aniqlanganda ularni fuqarolar yig'ini raisiga yo'naltiradi:

- og'ir ijtimoiy ahvoldagi xotin-qizlar oilasida ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish va ijtimoiy-iqtisodiy ahvolni yaxshilash;
- og'ir ijtimoiy ahvoldagi xotin-qizlar oilasidaga yordam ko'rsatish;
- "mahalla yettiligi"ning kollegial qarorlari asosida ko'rsatilgan ijtimoiy yordam va ajratilgan subsidiyalar;
- keksa, ayniqsa, yolg'iz ayollarning muammolarini manzilli o'rganish, ularni moddiy va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va hk.

Shuningdek, xotin-qizlar faoli quyidagi yo'nalishlar bo'yicha xotin-qizlarning muammolari aniqlanganda ularni hokim yordamchisiga yo'naltiradi:

- bandligini ta'minlash;
- kasb-hunarga o'qitish va ishga joylashtirish;
- tadbirkorlikka o'qitish va mustaqil faoliyatini yo'lga qo'yishga ko'maklashish;
- subsidiya ajratish va hk.

Xotin-qizlar faoli quyidagi yo'nalishlar bo'yicha xotin-qizlarning muammolari aniqlanganda ularni yoshlar yetakchisiga yo'naltiradi:

- yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish;
- ishsiz yoshlar bandligiga ko'maklashish;
- "og'ir" toifadagi yoshlarning hayotda o'z o'rnini topishlariga ko'maklashish;
- huquqbuzarlik sodir etishga moyilligi bo'lgan yoshlar va voyaga yetmaganlar bilan tizimli ishlash;
- "Yoshlar daftari"ga kiritilgan yoshlarning muammolarini hal etish va hk.

Xotin-qizlar faoli quyidagi yo'nalishlar bo'yicha xotin-qizlarning muammolari aniqlanganda ularni Profilaktika inspektoriga yo'naltiradi:

- Xotin-qizlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish;
- tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlangan xotin-qizlarga himoya orderini berish va nazoratni o'rnatish va hk.

Xotin-qizlar faoli quyidagi yo'nalishlar bo'yicha xotin-qizlarning muammolari aniqlanganda ularni ijtimoiy xodimga yo'naltiradi:

- ota-ona qaramog'isiz qolgan qizlarga vasiylik va homiylik belgilash;
- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan qizlar bilan ishlash;
- nogironligi belgilanmagan xotin-qizlarga kunlik rehabilitatsiya xizmatlarini ko'rsatish;
- muhtojlarni protez-ortopediya moslamalari bilan ta'minlash;
- o'zgalar parvarishiga muhtoj keksa ayollar bilan ishlash va ularga ijtimoiy xizmat ko'rsatish;
- kam ta'minlangan va boquvchisini yo'qotgan ayollarga ijtimoiy xizmat ko'rsatish;



• tazyiq va zo‘ravonlikka uchragan xotin-qizlarga ijtimoiy xizmat va yordam ko‘rsatish;

• xorijda vaqtincha mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan fuqarolar xonadonidagi ahvolni o‘rganish, og‘ir ahvolga tushib qolgan va og‘ir ahvolga tushib qolish xavfi yuqori bo‘lgan oilalarni muntazam ravishda monitoring qilib borish, ularning ijtimoiy xizmatlar va yordamga bo‘lgan ehtiyoji aniqlash, shu jumladan, ularning bola lariga ta‘lim, tibbiyot va boshqa ijtimoiy xizmatlardan foydalanishga yordam berish.

Xotin-qizlar faoli quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha xotin-qizlarning muammolari aniqlanganda ularni Soliq inspektoriga yo‘naltiradi:

• xotin-qizlarning tadbirkorlik faoliyatini qonuniylashtirish; o‘zini o‘zi band qilgan xotin-qizlarni kichik biznes toifasiga o‘tkazish va hk.

Og‘ir ijtimoiy holatdagi xotin-qizlar doimiy e‘tiborda va nazoratda bo‘lishi, ular bilan individual tartibda tizimli (amaliy) ish olib borilishi *ijobiy natija beradi*.

Xulosa

Xotin-qizlarning muammolarini aniqlash va ularni hal etish borasida tizimli va har tomonlama yondashish muhim ahamiyatga ega. “Mahalla yettiligi” va xotin-qizlar faollari ushbu jarayonda asosiy rol o‘ynab, muammolarni o‘z vaqtida aniqlash, tegishli yordam berish va muammoni hal etishga ko‘maklashish vazifalarini bajaradilar. Shu bilan birga, har bir ayolning ijtimoiy himoyaga muhtojligi aniqlanib, “Ayollar daftari” kabi axborot tizimlari orqali ularni qo‘llab-quvvatlash yo‘lga qo‘yiladi. Muammolarni doimiy kuzatib borish va tegishli idoralar bilan hamkorlik qilish natijasida xotin-qizlarning hayot darajasi yaxshilanadi, ijtimoiy himoya sifatliroq bo‘ladi. Bu esa nafaqat xotin-qizlarning, balki butun jamiyatning barqaror rivojlanishi va ma‘naviy yuksalishiga zamin yaratadi. Shunday qilib, xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini himoya qilishda tizimli va muvofiqlashtirilgan ishlar olib borish jamiyat taraqqiyotining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida” 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kambag‘allikni qisqartirish va aholi turmush farovonligini oshirish borasidagi chora-tadbirlarni yangi bosqichga olib chiqish to‘g‘risida” 2024-yil 23-sentabrdagi PF-143-son Farmoni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xotin-qizlar muammolarini o‘rganish va hal etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2022-yil 31-martdagi 145-son qarori / Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 01.04.2022 y., 09/22/145/0253-son, 10.09.2022 y.
4. Egamberdiyeva, N.M., Tuychiyeva. G.G., Ismaylova, R.N. Tauziq va zo‘rovonlikdan jabrlangan xotin-qizlarga psixologik yordam ko‘rsatish: uslubiy qo‘llanma. – Toshkent: “Mahalla va oila” nashriyoti, 2022. – 144 b.

5. Musurmanova O., Norqulov., Abdurahimova F. Mahallada oila farovonligi: milliy qadriyatlar va odob durdonalari: uslubiy qo'llanma / - Toshkent: "Mahalla va oila" nashriyoti, 2023. - 140 b.
6. Musurmonova O., Kuronov M., Abdujabborova M. Mahalla – hayot ko'zgusi. (savollarga javoblar) – T.: Yoshlar mediaprint, 2021. – 100 b.
7. Miralimov Sh. Mahalla mehri. – T.: Yoshlar mediaprint, 2021. – 100 b.

